



**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT
DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI AKADEMIK LITSEYI**

**24-OKTYABR
2025-YIL**



**O'zbek tilining
xalqaro maydondagi
nufuzi: tarix, bugun
va istiqbol**

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI AKADEMIK LITSEYI**



**O'ZBEK TILINING XALQARO MAYDONDAGI NUFUZI: TARIX,
BUGUN VA ISTIQBOL**

**ВЛИЯНИЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА НА МЕЖДУНАРОДНОЙ
АРЕНЕ: ИСТОРИЯ, СОВРЕМЕННОСТЬ И ПЕРСПЕКТИВЫ**

**THE PRESTIGE OF THE UZBEK LANGUAGE IN THE
INTERNATIONAL ARENA: HISTORY, PRESENT, AND FUTURE**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plami

OCTOBER 24, 2025



УДК:811.512.133(091)(100)(08)

Bugungi kunda “O‘zbekiston-2030” strategiyasining asosiy vazifalardan biri – ilmiy izlanish yutuqlarini amaliyotga joriy etish yo‘li bilan fan sohalarini rivojlantirish, ya’ni xalqaro ilmiy hamjamiyatda e’tirof etilishiga xizmat qilishdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrda “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son farmoni ijrosini ta’minlash hamda ta’lim jarayonida o‘zbek tili va adabiyot fanlarini o‘qitishda innovatsion metodlardan foydalanish va o‘qituvchilarga uslubiy yordam ko‘rsatish maqsadida 2025-yil 24-oktyabrda o‘tkaziladigan **“O‘zbek tilining xalqaro maydondagi nufuzi: tarix, bugun va istiqbol”** mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanning maqolalar to‘plamini e’lon qiladi. Mazkur ilmiy maqolalar to‘plamida o‘zbek tili tarixi va uning xalqaro aloqalardagi o‘rni, hozirgi o‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari, akademik litseylarda o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi, turkiy xalqlar adabiyoti tarixi, turkiy tillarning rivoji va o‘zaro o‘xshashliklari, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o‘rganish, madaniy aloqalami zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish, raqamli texnologiyalar davrida o‘zbek tilining imkoniyatlari, raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To‘plamdan dunyo bo‘yicha taniqli turkiyshunos olimlar, universitetlar, akademik litseylar professor o‘qituvchilari, iqtidorli talabalar hamda o‘quvchilarning maqolalari ham o‘rin olgan.

TAQRIZCHILAR:

Normamatov Sultonbek Ermamatovich - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori

Ismailova Vasila Shuxratovna - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot o‘qituvchisi

TAHRIR HAY’ATI:

Adizov Bekjon Qo‘chchiyevich - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi direktori

Aliqulova Dilbar Esanovna - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Baxtiyorov Qobuljon Odiljon o‘g‘li - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot o‘qituvchisi

Mazkur to‘plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2025-yil 30-oktyabrda 4-sonli ilmiy majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o‘zlari mas’uldirlar.



ADABIYOT DARSLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Urazova Nargiza Qurdashovna

TXVU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

e-mail: nargiza_urazova@mail.ru

10.52773/tsuull.conf.2025.24.10/ZIDA5144

Annotatsiya. Ushbu maqolada akademik litseylarda adabiyot darslarida badiiy asarni o'rganishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati, samarali metodlar va ularning o'quvchilarga ta'siri haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy ta'lim tizimi, adabiy ta'lim, muammoli vaziyat, adabiyot o'qitish metodi, muloqot texnologiyasi.

Zamonaviy ta'lim tizimi jadal sur'atlar bilan rivojlanib, an'anaviy dars uslublaridan innovatsion texnologiyalarga o'tish tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, adabiyot ta'limida o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda badiiy asarlarni chuqur anglashlariga ko'maklashish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Darhaqiqat, bugungi raqamli asrda o'quvchilarning e'tiborini dars jarayoniga jalb etish, ularni fan mazmuniga qiziqtirish o'qituvchidan nafaqat chuqur kasbiy bilim va pedagogik mahoratni, balki interfaol va innovatsion yondashuvlarni qo'llay olish ko'nikmasini ham talab etadi. Xususan, pedagogik texnologiyalarning to'g'ri va o'rinli qo'llanilishi adabiyot darsini jonlantiradi, matnni "tiriltiradi" va o'quvchilarning faolligini oshiradi. Asosiy natija shundaki, o'qituvchi texnologiyani emas, balki ta'limiy maqsadni ustuvor deb bilib, texnologiyani aynan shu maqsadga xizmat qildirgandagina eng yuqori samaraga erishadi. Ayniqsa, gumanitar fanlarda, xususan, adabiyot darslarida bu imkoniyatlardan to'liq va samarali foydalanish dolzarb masalaga aylangan. Adabiy ta'lim o'z tabiatiga ko'ra obrazli fikrlash, estetik qabul qilish va emotsional ta'sirni talab qiladi. Shu bois, texnologik vositalar



yordamida ushbu jihatlarni yanada kuchaytirish, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi va ishtirokini oshirish mumkin.

Ma'lumki, akademik litseylarning ta'lim yo'nalishi bo'yicha xilma-xilligi (aniq, tabiiy, ijtimoiy-gumanitar, xorijiy filologiya va h.k.) adabiy tahlilning ham ixtisoslashtirilishi, tabaqalashtirilishini taqozo etadi. Albatta, aniq, tabiiy, ijtimoiy-gumanitar, xorijiy filologiya yo'nalishidagi litsey o'quvchilari uchun bir xildagi tahlil nojoiz. Aniq va tabiiy fanlar yo'nalishidagi akademik litseylarda mavjud badiiy tahlil ijtimoiy-gumanitar va xorijiy filologiya yo'nalishidagi o'quvchilar ehtiyojini qondirmasligi tabiiy. Bu boradagi tahlil jarayonida badiiy-estetik qonuniyatlarning o'ziga xos jihatlari ko'proq va chuqurroq e'tibor talab etiladi. Har qanday holatda ham badiiy tahlil usullarining nihoyatda xilma-xilligini nazarda tutish va ulardan o'rinli foydalanish katta samara beradi. Muhimi badiiy asarning g'oyaviy mazmuni, badiiyati va yozuvchi nuqtayi nazarini o'quvchilar ongiga yetkazish, alaloqibat adabiy ta'lim mohiyatini teran idrok etishlariga erishish nazarda tutiladi.

Akademik litseylarda adabiyot o'qitishni tashkil etishning ilmiy va nazariy asoslari pedagogik, uslubiy va o'ziga xos adabiy jihatlarni birlashtirgan kompleks yondashuvga asoslanadi. Ushbu asoslar o'qitish metodikasidan tortib, o'quvchilarda adabiy asarlar mohiyatini idrok etish va chuqur tushunishni shakllantirishgacha bo'lgan keng ko'lamli masalalarni qamrab oladi.

Adabiyot o'qitish metodikasi o'qituvchilardan chuqur kasbiy tayyorgarlik va o'z-o'zini doimiy rivojlantirishni talab qiladi. Shu jarayonda o'qituvchi quyidagi bir qator muhim aspektlarni hisobga olishi kerak:

1. O'tmishdagi metodik meros: adabiyot o'qitish metodikasining an'anaviy usullari va ijodiy yondashuvlar, o'quv dasturlari va metodik qo'llanmalar bilan tanishish talab etiladi. Bu meros o'qituvchiga turli avlodlar uchun qanday yondashuvlar samarali bo'lganini tushunishga yordam beradi.



2. Zamonaviy dasturlar: yangi o'quv dasturlari va standartlari, adabiyot o'qitishning zamonaviy metodikasi, shu jumladan, texnologiya va interaktiv usullaridan foydalanish imkoniyatlari bilan tanishishi zarur. Bu o'quvchilarning hozirgi ehtiyojlariga javob beradigan ta'limni ta'minlaydi.

3. So'nggi yillarda yaratilgan o'quv-metodik adabiyotlar bilan ishlash, ularni tahlil qilish va dars jarayoniga integratsiyalash o'qituvchiga o'z fanini ilm-fanning eng so'nggi yutuqlari asosida o'qitish imkonini beradi.

4. Adabiy ta'linga doir ilmiy-uslubiy materiallar bilan tanishish va ularni amaliyotda qo'llash o'qituvchining metodikasini ilmiy-metodik salohiyatini oshiradi.

5. Boshqa o'qituvchilarning samarador va yangilikka yo'g'rilgan ilg'or tajribalarini o'rganish o'qituvchilarga o'z darslarini yangi g'oyalar asosida yanada qiziqarli tarzda tashkil qilishiga yordam beradi.

Yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, "Rustamxon" dostonini "muammoli ta'lim" usulida o'rganish o'quvchini mustaqil izlanishga olib boradi, asar tahliliga oid bilimlari takomillashadi, muammoli vaziyatni hal etishga doir xulosalar chiqaradi.

Taniqli metodist M.N. Skatkin muammoli ta'limning quyidagi uchta turini tavsiya etadi.

1. Bilimlarni muammoli bayon qilish.
2. Bayonning ayrim bosqichlarida o'quvchilarni izlanishga jalb etish.
3. Ta'limiy muammoni tanqidiy tahlil qilish.

Dars jarayonida o'quvchilar "Rustamxon" dostonini muammoli ta'lim usuli asnosida o'rganishlari mavzuni tez va qisqa fursatlar ichida o'zlashtirishga yordam beradi. Ishqiy-qahramonlik mavzusidagi "Rustamxon" dostonida xalq fantaziyasi, aql-zakovati va donishmandligi, xalqning azaliy orzu-umidlari, milliy dunyoqarashi o'zining yorqin ifodasini topgan. Asarni muammoli tahlil qilish uchun o'quvchilar



doston matni bilan to'liq tanish bo'lishlari shart. Bunda kichik guruhlar bilan ishlash yaxshi samara beradi.

Xususan, birinchi guruhga Sultonxon bir umr farzandli bo'lishni kutishi, farzandi dunyoga keladigan paytda Huroyimni kundoshlariga ishonib tashlab ketishi qanchalik to'g'ri degan muammoli savol o'rta tashlanadi.

Ikkinchi guruhga asardan olingan quyidagi parcha tavsiya qilinadi: "Maston tilla tangalar evaziga Huroyim ustidan fitna-g'iybat to'la arznoma yozdiradi, firib bilan Oqtosh ahliga tasdiqlatadi va Sultonxonga olib boradi. Sultonxon g'azabga minib, o'zi safardan qaytguncha Huroyimni shahardan haydab, dorga osishga buyuradi". Mazkur parcha asosida guruhga Sultonxon bu yerda qanchalik haq edi degan muammoli vaziyatga munosabat bildirish topshirig'i beriladi.

Uchinchi guruhga dostonidagi: "Ajdaho zulmidan qutulgan Bujul shahri va uning shohi Rustamni shohlikka ko'taradilar va Oftoboyimni unga to'y qilib olib beradilar. Rustam Bujulda uch kun podsho bo'lib turadi. So'ngra enasi va tozi itlari yoniga qaytadi..." parchasi yuzasidan Rustamxon nima uchun uch kun podshohlik qildi, u shohlikdan voz kechib to'g'ri qildimi degan muammoli savolga javob topish topshirig'i tavsiya qilinadi.

To'rtinchi guruhga "Dostonidagi asosiy qahramonlardan biri Huroyimdir. Huroyim Sultonxonga o'g'il farzand ato etadi, biroq evaziga qanchadan qancha jabru sitamlar ko'radi. Kundoshlari yurtidan quvganida ham, ajal ko'lanka solganida ham, o'zga yurtda qiyinchilikda yashasa ham, u o'zligidan kechmaydi. Undagi go'zal xulq, oqilalik barcha sitamlardan qutulishida yordam berdi. Rustam darvesh sifatida kelgan Sultonxonni qilich bilan chopmoqchi bo'lganida, Huroyimning o'ziga xos mulohazali ayol, oqila ona, kechirimli yor ekanligi ko'zga tashlanadi:

– Bolam! – deb qaytardi Rustamday uldi,

– Tavba qilib o'zi axtarib keldi,"

Chopib tashlab, bolam, senga ne bo'ldi?

Qanday bo'lsa, qo'zim, manmanlik qilma,



“Rustam otasini chopibdi” degan

Lanqa gapni, qo‘zim, o‘zingga olma”. Ushbu parcha asosida o‘quvchilarga Huroyim shuncha zulm ko‘rsatgan odamni kechirib to‘g‘ri qildimi? Savoli bilan murojaat qilinadi.

Professor Q. Yo‘ldoshev adabiy ta‘lim haqidagi quyidagi qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi: “Adabiyot o‘qituvchisining tinimsiz ishlashi adabiy ta‘limning muvaffaqiyatini belgilamaydigan asosiy mezon bo‘la olmaydi. Bu mezon – badiiy asar ustida o‘quvchilarning qanchalik ko‘p ishlashidir. Shuning uchun ham ayni topshiriqlar o‘quvchilarni badiiy matnni to‘laroq hazm qilishga imkon beradigan, badiiy so‘zning seyr-u jozibasini yorqin his etishga ko‘maklashadigan tadbirlar sifatida qaralishi o‘rinlidir. Demak, puxta savol va topshiriqlar o‘quvchilarning xayol ufqini kengaytiradi”²⁴. Olimning fikridan ko‘rinib turibdiki, adabiyot darslari u yoki bu adibning hayot yo‘lini yilma-yil sanash emas, balki u yaratgan badiiy san‘atni o‘quvchi qalbiga singdirish tamoyilidan foydalanish to‘g‘ri bo‘lishini ko‘rsatadi.

Shularni hisobga olib, mashg‘ulotni “Muloqot” texnologiyasida foydalanib tashkil etilsa, ijobiy natija beradi. Bu texnologiya “o‘quvchilarning dars jarayonida mustaqil fikrlashiga, o‘z fikrlarini erkin bayon etishiga hamda ularda bahslashish madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib, odatda, bunday mashg‘ulot o‘quvchilarni kichik guruhlariga ajratgan holda o‘tkaziladi”²⁵. O‘qituvchi darsni tashkil qilishdan oldin, o‘quvchilarning Qodiriy va uning asarlarini qay darajada bilishini aniqlab olish shart. Chunki ularning bilimlaridan kelib chiqib, “O‘tgan kunlar” asari bo‘yicha topshiriq beriladi. Masalan, har bir guruhga muammoli vaziyatlarni yuzaga keltiradigan, o‘quvchilarni fikrlashga, o‘ylashga, mushohada yuritishga undaydigan savollarni berish taqozo qilinadi. Jumladan, 1-guruhga asarning muqaddimasida keltirilgan “Moziyg‘a qaytib ish ko‘rish xayrlik, deyдилar.

²⁴ Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: O‘qituvchi, 1996. – B. 63.

²⁵ Ishmuhammedov R. va boshqalar. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar. – T.: 2008. – B. 46.



Shunga ko'ra mavzuni moziydan, yaqin o'tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo'lg'an keyingi "xon zamonlaridan belgiladim"²⁶, parchasini o'qib berib, quyidagicha topshiriq berish mumkin: Nima uchun yozuvchi tariximizning shu davrini "eng kirlik, qora kunlar" deb ataydi?

2-guruhga esa asardan: "264 inchi hijriy, dalv oyining o'n yettinchisi, qishki kunlarning biri, quyosh botqan, tevarakdan shom azoni eshitiladir. Darbozasi sharqi-janubiyga qaratib qurilg'an bu dong'dor saroyini Toshkand, Samarqand va Buxoro savdogarlari egallaganlar, saroydagi bir-ikki hujrani istisno qilish bilan boshqalari musofirlar ila to'la. Saroy ahli kunduzgi ish kuchlaridan bo'shab hujralariga qaytqanlar, ko'b hujralar kechlik osh pishirish ila mashg'ul, shuning uchun kunduzgiga qarag'anda saroy jonliq: kishilarning shaqillashib s o'zlashishlari, xoxolab kulishishlari saroyini ko'kka ko'targudek."²⁷ parchasini taqdim etib, quyidagi savolni o'rta tashlash mumkin: Nima uchun qish kuni, nima uchun azon aytilgandan keyin nomoz o'qilmadi, nima uchun karvonsaroyida hamma o'zining ishi bilan band?

3-guruhga esa asarda nima uchun Otabekning onasiga "O'zbek oyim" deb ism qo'yilgan? Axir ayollarda "O'zbek" degan ismni qariyb uchratmaymiz-ku?²⁸

4-guruhga asardan keltirilgan quyidagi parchani: "Otabek mehmonlarni tanchaga o'tqazib, fotihadan so'ng Hasanalidan so'radi:

- Tuzukmisiz, ota?
- Xudoga shukur, – dedi Hasanali, – boyag'idan biroz yengilladim. Mazmuni is tekkan ekan.
- Ba'zi yumushlar buyursam...
- Buyuringiz, o'g'lim.
- Rahmat, ota, bo'lmasa bizga choy qaynatib bersangiz-chi.
- Xo'b, begim.

²⁶ Abdulla Qodiriy "O'tgan kunlar" romani. – T., 2017. – B.1.

²⁷ Abdulla Qodiriy "O'tgan kunlar" romani. – T., 2017. – B.1.

²⁸ Мирвалиев С. "Абдулла Қодирий (хаёти ва ижоди)". – Т.: "Фан" нашриёти, 2004. – Б. 86-88.



Hasanali chiqdi. Rahmat Otabek bilan yana bir qaytib sog'liq so'rashqandan keyin so'radi:

– Bu kishi kimingiz bo'ladir, bek aka?

Otabek Rahmatning savoliga javob bermay eshikka qaradi. Hasanalini hujradan uzoqlatib, so'ngra javob berdi:

– Qulimiz”²⁹.

Mazkur parcha bilan tanishtirilgach, o'quvchilarga quyidagi savolni berish mumkin: Otabek nima uchun Hasanalining hujradan uzoqlashishini kutib, keyin javob berdi? Bu parcha orqali yozuvchi nima demoqchi?

4-guruhga adib asarga nima uchun “Usta Olim” hikoyasini kiritgan, bu hikoya bilan o'quvchini nimaga tayyorlamoqchi deb o'ylaysiz?

5-guruhga Otabek Marg'ilonga kelganiga hali bir oy o'tar- o'tmas, otasi Yusufbek hojidan maktub oladi. Maktub so'ngida “Azizbek voqeasi” “bosulmaguncha Toshkedka kelmasligining maslahatdir!”³⁰, – degan jumla uchraydi. Ya'ni ota o'z o'g'lini sodir bo'lishi mumkin bo'lgan bir – xavf-xatardan ogoh etmoqchi – buning ustiga “Otabek oshiq”, va “yana havo bulut, achchig' sovuq, el to'rt tomonga yugurib”, “qor uchqunlayotir”. Xuddi shu sharoitda Otabek o'z hujrasida “Boburnoma”mutolaasi bilan mashg'ul edi. o'quvchilarga ushbu murakkab sharoitda Otabek boshqa biror o'zga asrni emas, aynan “Boburnoma”ni o'qimoqda? Bu yerda qanday ramziylik bor? Degan savollarni berish mumkin.

6-guruhga asardan olingan quyidagi parchasini keltirib: “1277 nchi yilning kuz kezlarida bo'lsa kerak, Yusufbek hoji Qanoatshdan bir xat oldi. Qanoatsho avliyo otadan yozar edi.

“O'g'lingiz Otabek yana bir kishi bilan bizning qo'shunda edi. Olmaota ustidagi o'rus bilan to'qunashumizda birinchi safimizni shu ikki yigit oldi va qahramonona urushib shahid bo'ldi. Men o'z qo'lim bilan ikkisini dafn etdim.”

²⁹ Abdulla Qodiriy. “O'tkan kunlar” – T., 2017. – B. 2.

³⁰ Tohir Malik. Ажаб саодат. Ўткан кунлар. – Т., 2000. – Б. 378-379.



Yusufbek hoji xatmi qur'on qilib yurtka osh berdi, O'zbek oyim qora kiyib ta'ziya ochdi"³¹. parchasini keltirib, Otabek nima uchun aynan kuz kunlar shahid ketdi, yozdamas yo bahordamas, nima uchun O'zbek oyim qora kiydi deb qora so'ziga urug' bermoqda? Savollari bilan murojaat qilish mumkin.

O'quvchilar shu kabi savollarga muloqot orqali javob izlashadi, bu esa ularning kreativ fikrlashi va asarni to'g'ri va xolis baholashiga zamin yaratadi. Natijada asarni yangicha talqin va tahlil qilish boshlanadi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot fani imkon qadar ko'proq tasviriy, jonli, hissiy va obrazli bo'lishi kerak. Zamonaviy texnologiyalar esa buni ta'minlaydigan samarali vositalardan biridir. Shu bois o'qituvchilar texnologiyalarni chuqur o'zlashtirib, uni adabiy-badiiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qildirishga alohida e'tibor qaratishlari lozim.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: O'qituvchi, 1996. – B. 63.
2. Ishmuhamedov R. va boshqalar. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: 2008. – B. 46.
3. Abdulla Qodiriy "O'tgan kunlar" romani. – T., 2017. – B. 209.
4. Мирвалиев С. "Абдулла Қодирий (ҳаёти ва ижоди)". – Т.: "Фан" нашриёти, 2004. – Б. 86-88.
5. Tohir Malik. Ажаб саодат. Ўткан кунлар. – Т., 2000. – Б. 378-379.

³¹ Abdulla Qodiriy. "O'tkan kunlar" romani. – T., 2017. – B. 209.

№	MAQOLA SARLAVHASI VA MUALLIFLARI	SAHIFASI
I SHO'BA. O'ZBEK TILI TARIXI VA UNING XALQARO ALOQALARDAGI O'RNI		
1	ÖZBƏKİSTAN RESPUBLİKASINDA DİL SİYASƏTİNİN MÜSTƏQİLLİKDƏN SONRAKİ İNKİŞAF MƏRHƏLƏLƏRİ - Elçin İBRAHİMOV Prof. Dr. Qarabağ Universiteti Elm şöbəsinin müdiri	19-35
2	ORTAK DEĞERLERİMİZ: DİLİMİZ, KÜLTÜRÜMÜZ VE ATASÖZLERİMİZ - Ahmet Hamdi SALBAŞ Ali Şir Nevai Akademik lisesi öğretmeni	36-41
3	O'ZBEK TILINING XALQARO MIQYOSDA OMMALASHUVI: RIVOJLANISH OMILLARI VA ISTIQBOLLARI - Bahodirov Botir Baxodirovich - Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti akademik litseyi yoshlar ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari	42-47
4	TIL – MILLAT KO'ZGUSI - Baxodirova Mashhura Baxodirovna, Osimova Rayxona Adhamjon qizi - Farg'ona davlat texnika universiteti 1-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari	48-51
5	O'ZBEK TILI TARIXI VA UNING XALQARO ALOQALARDAGI O'RNI - Nazarova O'rozhol Xudoyberdiyevna - Termiz davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	52-55
6	FRANSUZ TILINI TARIXIY RIVOJLANISHI - Usmanova Malika Adilovna Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi "Chet tillar" kafedrasida fransuz tili fani o'qituvchisi	56-58
7	FRANSUZ TILIDA FRAZELOGIK BIRLIKLARI - Andapulatova Firuza Ikramovna - Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi "Chet tillar" kafedrasida fransuz tili fani o'qituvchisi	59-62
8	O'ZBEK TILINING XALQARO MAYDONDAGI NUFUZI: TARIXI, BUGUNI VA ISTIQBOLLARI - Yangiboyeva Umida Ravshanbek qizi Urganch innovatsion universiteti Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi, 24-01 guruh talabasi	63-66
9	MAXMUD QOSHG'ARIYNING LINGVISTIK QARASHLARI - Umarov Abroroxuja Vaxobovich Namangan davlat texnika universiteti 1-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	67-70
10	O'ZBEK TILINING XALQIMIZ VA XALQARO ALOQALARDAGI AHAMIYATI - Saidova Dildora Baxtiyarovna TDTU 3-son akademik litseyi o'zbek tili va adabiyot fani o'qituvchisi	71-74
11	O'ZBEK TILI: MILLIY O'ZLIK VA XALQARO E'TIROF RAMZI - Eshnayeve Feruza Qarshiyevna Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	75-77
12	İLİM ÜZERİNE - Zahro Mahmudova Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi Xorijiy tillar (turk) yo'nalishi o'qituvchisi	78-82
13	"CODEX CUMANICUS"DA İŞLƏNƏN BƏZİ SÖZLƏRİN DİALEKTLƏRDƏ İZLƏRİ - İmanyar QULİYEV AMEA Nəsimi adına Dilçilik İnstitutu, böyük elmi işçi, fil.ü.f.d. Bakı Avrasiya Universiteti, müəllim	83-94
II SHO'BA. HOZIRGI O'ZBEK TILSHUNOSLIGINING DOLZARB MUAMMOLARI		
14	ELBEKNING LUG'ATCHILIK FAOLIYATI HAQIDA - Normamatov Sulton Ermamatovich Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Filologiya fanlari doktori (DSc), professor	96-102
15	IS'HOQXON IBRAT ASARLARIDA IJTIMOYIY-SIYOSIY, MAISHIY LEKSIK QATLAM QO'LLANISHIDAGI LISONIY VA NOLISONIY OMILLAR - Latipov Murotali Mannobovich Guliston davlat universiteti Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.	103-107
16	ZAHRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING O'ZBEK TILI TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI - Abbasova Mubina Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti stajer-tadqiqotchisi	108-112
17	FIZIOLOGIK HOLAT FE'LLARINING O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLAR - Pulat Fozilov Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi	113-119
18	DINIY LEKSEMALARINING SEMANTIK VA STILISTIK XUSUSIYATLARI TAVSIFI -Mirzayeva Mashxura Ravshanbek qizi Farg'ona davlat texnika universiteti 1-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	120-124



19	LINGVOPRAGMATIKANING TILSHUNOSLIKDAGI O'RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI - Kobilov Nomoz O'rolovich Sharof Rashidov nomidagi SamDU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi (PhD)	125-128
20	HOZIRGI O'ZBEK TILSHUNOSLIGINING DOLZARB MUAMMOLARI - Abdurasulova Raximaxon Odiljon qizi Namangan davlat pedagogika instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	129-131
21	KULOLCHILIK LEKSIKASIDA DETERMINATSIYA VA TERMINOLOGIZATSIYA HODISALARI Mamatkulova Zilola Rejabaliyevna Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori	132-136
22	QADIMGI VA ESKI TURK BITIKLARIDA TABG'ACH VA QITANY (XITOIY) TOPONIMLARI MASALASI - Mamajonov Alisherbek Ravshanbek o'g'li Farg'ona davlat univeristeti Lingvistik: o'zbek tili mutaxassiligi magistranti	137-143
23	HOZIRGI O'ZBEK TILSHUNOSLIGINING DOLZARB MUAMMOLARI - Tilovova Guljahon Dilmurod qizi Shahrizabz davlat pedagogika instituti huzuridagi akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	144-147
24	"MUNOZARA" DRAMASIDA QO'LLANGAN BA'ZI UNDOV SO'ZLARING LINGVOPRAGMATIK TAHLILI - Usmonova Shaxnozaxon Erkinjonovna TDYU huzuridagi Namangan viloyati akademik litseyi Tillar kafedrasida yetakchi o'qituvchisi	148-151
25	O'ZBEK TILIDA SINTAGMATIK MA'NO VA SINTAGMATIK MUNOSABAT, ULARNING IFODALANISH YO'LLARI - Usmonova Huriniso Sharapovna, Namangan davlat universiteti professori	152-156
26	HID KONSEPTI - Qurbonov Akmaljon Tavakaljon o'g'li Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi	157-162
27	METATIL VA TARIXIY TURKOLOGIYA: 'AT-TUHFATUZ ZAKIYATU FIL-LUG'ATIT-TURKIYA ASARINING ILMIY MEROSI - Xolbekova Nargiza Zohidjonovna FarDU mustaqil izlanuvchisi, FarDU akademik litseyi ingliz tili o'qituvchisi	163-165
28	O'ZBEK VA INGLIZ DISKURSIDA TOLERANTLIKNING MADANIY JIHATDAN IFODALANISHI - Gavharoy Yormatova Abdulla qizi Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi ingliz tili o'qituvchisi	166-171
29	O'ZBEK TILIDA O'XSHATISHLI QURILMALAR BADIYYATI - Gazibekova Soxiba Yusupovna O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutining mustaqil izlanuvchisi	172-176
30	AYRIM DEHQONCHILIK LEKSIKASI ETIMOLOGIYASI - Pirmatova Ozodaxon Saparboyevna Urganch davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim fakulteti katta o'qituvchisi	177-181
31	NAMANGAN QIPCHOQ SHEVALARIDA ADABIY TIL LUG'ATINI BOYITISHGA XIZMAT QILUVCHI BIRLIKLAR - Mamatismoilova Xanifa Hayitmirzayevna, NamDTU 2-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Pirmatova Mahfuza Muhibullayevna, NamDTU 2-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	182-189
32	O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA YUKLAMALAR TADQIQI - Ismailova Dilnoza Shavkatovna Toshkent davlat tibbiyot universiteti 1-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	190-195
33	O'ZBEK TILIDAGI SINTAKTIK BIRLIKLARDA KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK MA'NO IFODALANISHI - Qazaqova Nozima Abdulboqiyevna, University of Business and Science dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori	196-201
34	XALQ DOSTONLARI LEKSIKASINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI - Abduqahhorova Muattar Ma'rufjon qizi, Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Namangan viloyat akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	202-207
III SHO'BA. AKADEMIK KITSEYLARDA O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O'QITISH METODIKASI		
35	AKADEMIK LITSEYLARDA O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBALAR INTEGRATSIYASI - Adizov Bekjon Qo'chchiyevich, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi direktori	209-219
36	«LEKSIKOLOGIYA» BO'LIMINI O'QITISH JARAYONIDA O'QUVCHILARNING SO'Z BOYLIGINI OSHIRISH YO'LLARI - Ismailova Vasila Shuxratovna, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	220-230



37	AKADEMIK LITSEYDA O'ZBEK TILI O'QITISHNING AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY USULLARI - Botirova Soliyaxon Ro'zivojevna O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi ona tili va adabiyot fani bosh o'qituvchisi	231-238
38	ADABIYOT DARSLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI - Urazova Nargiza Qurdashovna , TXVU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	239-246
39	O'ZGA TILLI GURUHLARDA ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODINI O'RGANISH -Shomurodova Sitora Xoshim qizi , "International house – Tashkent" akademik litseyi o'zbek tili fani o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)	247-250
40	UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA ONA TILI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH MASALALARI (Qozog'istondagi ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan maktablar misolida) - Naraliyeva Shahlo Djamalovna , Jumabek Tashenev nomli universiteti katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) (Qozog'iston, Chimkent) Hulkar Hamroeva , O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi dosenti, filologiya fanlari doktori (O'zbekiston, Toshkent)	251-260
41	SAID AHMADNING „QORAKO'Z MAJNUN“ASARINI O'RGANISH - Nasriyeva Dilbar Muhiddinovna , Chirchiq davlat pedagogika universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	261-264
42	AKADEMIK LITSEY DARS JARAYONIDA "QUTADG'U BILIG" ASARINING O'QITILISHI - Matkarimova Nasiba Bekchanovna , Toshkent davlat transport universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	265-267
43	AKADEMIK LITSEYLARDA ANTON PAVLOVICH CHEXOV HAYOTI VA IJODINI O'RGATISHNING SAMARALI USULLARI - Farida Abdullayeva Xayrulla qizi , Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI akademik litseyi o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi	268-272
44	AKADEMIK LITSEY DARSLIKLARIDA TAQLID SO'ZLAR MAVZUSINING BERILISHI TO'G'RISIDA - Narziyeva Nazokat Abdurasulovna , Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, SamDU mustaqil izlanuvchisi	273-277
45	AKADEMIK LITSEYLARDA O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODIKASI -Mansurova Zilola Bahodirovna , Navoiy davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani bosh o'qituvchisi	278-283
46	AKADEMIK LITSEYLARDA O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI FANINI O'QITISHDA INGLIZ TILI METODIKASIDAN FOYDALANISH TAHLILI - Ashurova Feruza Maxamadyusupovna , Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi chet tillari kafedrasida ingliz tili fani o'qituvchisi	284-288
47	ADABIYOT – SO'Z SAN'ATI - Xakimova Shapoat Pazliddinovna , Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	289-293
48	ABDULLA QODIRIY IJODINI O'RGATISHDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH - Djabbarova Nodira Shovkat qizi , Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	294-297
49	AKADEMIK LITSEYLARDA O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O'QITISH METODIKASI - Ahmadaliyev Shohruh , Toshkent Davlat Yuridik Universiteti huzuridagi Namangan viloyat akademik litseyi Matematika fani o'qituvchisi	298-303
50	ADABIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI LOYIHA TEXNOLOGIYASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI - Mamatova Maxbuba Abdulboqi qizi , Namangan davlat pedagogika instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	303-306
51	AKADEMIK LITSEYLARDA O'ZBEK TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH - Toshmurodova Xalima To'raxonovna , Chirchiq davlat pedagogika universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	307-310
52	KOMIL INSONNI TARBIYALASHDA DIDAKTIK ADABIYOTNING O'RNI - To'xtaboyeva Muyassar , Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani, oliy toifali o'qituvchisi, falsafa fanlar doktori (PhD) Jo'rayeva Muhabbat , Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani oliy toifali o'qituvchisi	311-315
53	ADABIYOT O'QITISHDA BADIY TAHLIL MUAMMOLARI - Hamdamova Manzura Jurabayevna , Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	316-319



54	ONA TILI DARSLARIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH - Achiliva Nasiba Saidovna , Samarqand iqtisodiyot va servis instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot o'qituvchisi	320-324
55	AKADEMIK LITSEYLARDA "MA'NO KO'CHISH YO'LLARI" MAVZUSINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI - Egamberdiyeva Vazira G'ulomovna , Guliston davlat universiteti akademik litseyi Ona tili va adabiyot fani bosh o'qituvchisi	325-328
56	ADABIYOT DARSLARIDA FSMU TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH - Matluba Rahmonova Usmonovna , NamDU akademik litseyi o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi	329-333
57	«HOL VA UNING USLUBIYATI» MAVZUSINI O'RGANISHDA AXBOROT VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI - Achilova Zarina Saidovna , Samarqand iqtisodiyot va servis instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	334-338
58	ADABIY MATN ASOSIDA LINGVOMADANIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARNING O'RNI - Norov Jamshid Nurulloevich , Buxoro davlat pedagogika instituti, Xorijiy tillar kafedrası tayanch doktoranti	339-342
IV SHO'BA. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA O'ZBEK TILINING IMKONIYATLARI		
59	SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA O'ZBEK TILINI O'QITISH: IMKONIYATLAR, USULLAR VA MUAMMOLAR - Aliqulova Dilbar Esanovna , Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari	344-352
60	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR IMKONIYATLARI. "RAQAMLI O'ZBEKISTON - 2030" STRATEGIYASI - Shodiyeva Nigora Murodullayevna , Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi informatika fani o'qituvchisi	353-358
61	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA O'ZBEK TILINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI - Sulaymonova Nafisa Sattorovna , Navoiy davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	359-362
62	TILSHUNOSLIKDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARNING O'RNI - Qosimova Dilnoza Toshkanovna , O'zDJTU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	363-367
63	ЦИФРОВАЯ ВИЗУАЛИЗАЦИЯ ТЕКСТА: СОЗДАНИЕ КОМИКСОВ ПО РАССКАЗУ А. КАХХАРА «ДВА САПОГА-ПАРА» С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ CHATGPT - Атабекова Айну р Женисбековна, Преподаватель русского языка и литературы. Академический лицей Филиала РГУ нефти и газа(НИУ) имени И.М.Губкина	368-372
64	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA O'ZBEK TILINING IMKONIYATLARI - Tilovova Guljahon Dilmurod qizi , ShDPI huzuridagi akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	373-376
65	ONA TILI TA'LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI - Baxodirova Mashhura Baxodirovna , Osimova Rayxona Adhamjon qizi, Farg'ona davlat texnika universiteti 1-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari	377-381
66	THE ROLE OF LANGUAGE IN THE DIGITAL AGE - Ibragimova Hurriyat Uchqun qizi , JMCU master's student in Journalism Teacher of Uzbek Language and Literature at the M.S. Vosiqova Academic Lyceum under Tashkent State University of Law	382-387
67	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA O'ZBEK TILINING IMKONIYATLARI - Bahodirova Dildoraxon Zarifjon qizi , Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi xorijiy tillar yo'nalishi o'quvchisi	388-390
68	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA O'ZBEK TILINING IMKONIYATLARI - Saminova Muslimaxon Quadratjon qizi , Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi xorijiy tillar yo'nalishi o'quvchisi	391-394
69	YAPAY ZEKÂ VE ÖZBEK DİLİ: SORUNLAR VE ÇÖZÜMLER - Allanazarova Anora Muxobir qizi Shahrizabz davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti.	395-400
70	RAQAMLI ASRDA ONA TILI ORQALI MILLIY QADRIYATLARNI SAQLASH VA RIVOJLANTIRISH- O'rinova Sayyora Xolmirzayevna , TDYU huzuridagi Namangan viloyat akademik litseyi "Tillar" kafedrası ona tili va adabiyot fani bosh o'qituvchisi	401-409



V SHO'BA. TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TARIXI

71	MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK –AZARBAYJAN ADABIY ALOQALARI: NIZOMIY “XAMSA” SINING TARJIMASI HAQIDA - Ashurova Gulbahor Nurullayevna , Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti	411-418
72	TURKIYADA ALISHER NAVOIY IJODINI O'RGANISHNING YETAKCHI TENDENSIYALARI - Cho'lliyeva Latofat Sevindikovna , ToshDO'TAU tayanch doktranti, ToshDO'TAU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	419-438
73	ИСТОРИЯ ЛИТЕРАТУРЫ ТЮРКСКИХ НАРОДОВ - Султанова Майя Туйчиевна , преподаватель АЛ САМ ГИИЯ Академический лицей Самаркандского Института Иностранных Языков Республика Узбекистан, г. Самарканд	439-443
74	ALISHER NAVOIY IJODINING TURKIY XALQLAR ADABIYOTIDA O'RGANILISHI - Karimova Yulduz Baxtiyorovna (PhD) , Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	444-448
75	ADABIY MUHITNING QODIRIY IJODIGA TA'SIRI - Abdilakimov Dilruxjon Rajab o'g'li Toshkent kimyo-texnologiyalari instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	449-455
76	O'RXUN-ENASOY BITIKLARI ASOSIDA TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TARIXI -Madaminova Rayhona Alisher qizi , Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi xorijiy tillar yo'nalishi o'quvchisi	456-459
77	MAHMUD QOSHG'ARIY VA UNING TURK ADABIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI - Madina Zokirova Shuhratjon qizi , Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi xorijiy tillar yo'nalishi o'quvchisi	460-463
78	MAHMUD QOSHG'ARIY – TURKIY TIL VA ADABIYOTINING ASOSCHISI - Satimova Ra'noxon Habibullayevna , Andijon davlat tibbiyot instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	464-469
79	YUSUF XOS HOJIBNING TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI - Ne'matova Benazir Adilbekovna , Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi xorijiy tillar yo'nalishi o'quvchisi	470-473
80	JAZBIYNING TURKIY DEVONI QO'LYOZMALARI - Samadova Madina Zafarjon qizi , Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	474-479
81	XIDIR DERYAYEVNING “QISMAT” ASARI TAHLILI -Xolmurodova Mahliyo , Termiz davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 4-bosqich talabasi	480-482
82	ILM VA ADABIYOTNING SINTEZI: "OLIM-SHOIR" MODEL - Akbarova Sayyora Sobirovna , Toshkent davlat texnika universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, Shamsiddinov Nasriddin Bahriddinovich , Toshkent davlat texnika universiteti akademik litseyi matematika fani o'qituvchisi	483-488
83	YOSHLAR TARBIVASIDA MILLIY TILNING O'RNINI VA AHAMIYATI - GO'ZALOY MAMEDOVA Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti akademik litseyi oliy toifali, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	489-491



